

## O'ZBEK TILIGA DAVLAT TILI MAQOMINING BERILISHI

Xolisova Gavxaroy Mannobjon  
qizi f.f.f.dok dotsent

Yuldashova Go'zal Rustam qizi  
Roman german va slavyan tillari fakulteti  
Kompyuter lingvistikasi yo'nalishi 2-  
bosqich talabasi

## ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilishining tarixiy ahamiyati, ijtimoiy-siyosiy zarurati hamda tilning jamiyat hayotidagi o'rni yoritilgan. 1989- yil 21-oktabrda qabul qilingan „O'zbek tilining davlat tili to'g'risida“gi qonunning mazmuni va uning mustaqillik yillardagi yangilangan talqinlari tahlil etilgan.

**KALIT SO'ZLAR:** o'zbek tili, davlat tili, qonun, mustaqillik, ma'naviyat.

Xalqning Vatani, davlati kabi yana bir buyuk boyligi bor. Bu- uning tilidir. Aynan til odamlar guruhini bir millat sifatida , biriktiradi, ya'ni xalqni- xalq , millatni-millat qiladi.[1]

Til bu-o'zligimizdir. Tilimizni bilmas ekanmiz tafakkur ham qila olmaymiz, madaniyatimizni ham bilolmaymiz. Bizning madaniyatimiz ham tilimizda mujassam bo'ladi. Ulug' mutaffakir shoirimiz Mir Alisher Navoiy o'zbek xalqi ma'naviy dunyosi , tilning shakllanib rivoj topishida xizmatlari katta bo'lgan . Hazrati Navoiyning asarlari sababli tilimizga bo'lgan mehr – muhabbatimiz oshgan.

Mustaqillik sharofati bilan o'zbek tiliga – davlat e'tibori kuchaydi. Ona tilimizning 1989-yil 21- oktabrda O'zbekiston Oliy Kengashining XI sessiyasida

O'zbekiston Respublikasining „Davlat tili haqida“gi qonun qabul qilindi. Bu qonun mustaqillik arafasida turgan davlatimiz hayotida unutilmas voqea bo'lib tarixga kirdi. 1990- yil 19- fevralda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Kengashining 101- sonli qarori bilan ushbu qonunni amalga oshirish bo'yicha davlat dasturi tasdiqlandi. Shu boisdan davlat dasturida „Davlat tili haqida“gi qonun qabul etilgan kun „Ona tili kuni“ deb e'lon qilindi. (1-qism 7- modda)

Ushbu davlat tili haqidagi qonun mohiyati :

1. Qonun 30 moddadan iborat bo'lib , avval o'zbek tilining qadr - qimmatini , huquqini , o'rnini tiklaydi. 1- moddasida „O'zbekiston Respublikasi davlat tili- o'zbek tilidir“ deb ko'rsatilgan. Shu bilan birga O'zbekiston o'zbek tilini butun choralar bilan rivojlantiradi va uning siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotning barcha sohalarida to'liq amal qilinishini ta'minlaydi deb uqtiriladi. (1-modda)

Ma'lumot o'rnida aytish kerakki o'zbek tilini XV asrda davlat tili darajasiga ko'tarish , uni ravnaq toptirish uchun buyuk bobokaklonimiz Alisher Navoiy ko'p kuch sarf qilgan. U o'zining „Xamsa“ , „Xazoin ul- maoniy“ , „Muhokamat ul lug'atayn“ kabi o'lmas asarlarini shu tilda yaratgan. O'tgan besh asrdan ko'proq davrda O'zbek tilining ahamiyati kamaygani yo'q. Amko 70 yillik mustabid tuzumining siyosati sababli o'zbek tilining ish ko'rish doirasi chegaralanib qoldi va ahamiyati pasayib ketgan edi. Xalqimizning doim mustaqil bo'lishi, erkin yashash yo'lida kurashib kelgan Cho'lpon, Fitrat, Abdulla Avloniy, G'affur G'ulom, Oybek, Hamid Olimjon, Abdulla Qahhor kabi siymolari adabiy tizim ravnaqi yo'lida tinmay ijod qildilar. Bu kurashlar samarasiz ketmadi. [2] 1989-yil 21- oktabrda O'zbek tiliga davlat tili maqomi berildi. Shu kuni „O'zbek tilining davlat tili to'g'risida“gi qonun qabul qilingan. Bu qonunda O'zbekiston davlat idoralari, ta'lim muassasalari, madaniyat va ommaviy axborot vositalarida o'zbek tilidan foydalanishni huquq jihatdan mustahkamlandi. 2020-yil 10- aprelda esa O'zbekiston Respublikasining „O'zbek tili bayrami kunini belgilash to'g'risida“gi Qonuni qabul qilinishi quvonarli hol bo'ldi. Ushbu qonun

bilan har yili 21-oktabr butun mamlakatimiz bo'ylab katta bayram sifatida nishonlanmoqda . Bu esa ona tilimizni qay darajada ardoqlashimizni va hurmat qilishimizni bildiradi.

#### XULOSA

Mustaqillik yillarida davlat tili siyosati yanada rivojlanib, o'zbek tilining nufuzi yanada oshdi, xalqaro miqyosda ham e'tirof etila boshladi. O'zbek tili bugungi kunda milliy birlik, ma'naviyat va madaniyatimizning asosiy tayanchi bo'lib xizmat qilmoqda.

Shunday ekan , o'zbek tilini asrash, rivojlantirish va to'g'ri ishlatish har bir fuqaroning burchi hamda kelajak oldidagi mas'uliyatli vazifadir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

ChatGPT AL

<https://arxiv.uz>

<https://corp.uzairways.com>